



Sevara F. DJANBAYEVA,
Magistrant, Guliston davlat pedagogika instituti, Guliston, O'zbekiston
E-mail: farhodovnasevara@gmail.com,

PhD U.Yakubova taqrizi asosida

USING THE POSSIBILITIES OF ARTISTIC PEDAGOGY IN TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION ON THE EXAMPLE OF ANIMATION DUBBING TECHNOLOGY

Annotation

This article highlights the theoretical and methodological foundations and practical effectiveness of using artistic pedagogy tools, particularly animation dubbing technology, in teaching the subject of education in the 7th grades of secondary schools. The study analyzes the essence of artistic pedagogy, its role in the educational process, and its historical-genetic stages of development from a scientific-theoretical perspective. The main aim of the research is to enhance students' cognitive activity in lessons and the level of mastering moral concepts by involving them in voicing animated stories created on the basis of moral topics and harmoniously combined with national music. The article scientifically and practically substantiates the effectiveness of artistic pedagogy in forming aesthetic perception, critical and independent thinking, as well as commitment to spiritual values.

Keywords: Artistic pedagogy, education subject, animation dubbing technology, moral education, national music, multimedia tools, student activity, pedagogical competence.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ НА ПРИМЕРЕ ТЕХНОЛОГИИ АНИМАЦИОННОГО ДУБЛЯЖА В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА ВОСПИТАНИЯ

Аннотация

В данной статье освещаются теоретико-методические основы и практическая эффективность использования средств художественной педагогики, в частности технологии анимационного дубляжа, при преподавании предмета воспитания в 7-х классах общеобразовательных школ. В исследовании проанализированы сущность художественной педагогики, её роль в воспитательном процессе и историко-генетические этапы развития с научно-теоретической точки зрения. Основная цель исследования заключается в повышении когнитивной активности учащихся на уроках и уровня усвоения нравственных понятий путём вовлечения их в озвучивание анимационных историй, созданных на основе нравственных тем и гармонично сочетающихся с национальной музыкой. В статье научно-практически обоснована эффективность художественной педагогики в формировании эстетического восприятия, критического и самостоятельного мышления, а также преданности духовным ценностям.

Ключевые слова: Художественная педагогика, предмет воспитания, технология анимационного дубляжа, нравственное воспитание, национальная музыка, мультимедийные средства, активность учащихся, педагогическая компетенция.

TARBIYA FANINI O'QITISHDA BADIY PEDAGOGIKA IMKONIYATLARIDAN ANIMATSION DUBLYAJ TEKNOLOGIYASI MISOLIDA FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 7-sinfida tarbiya fanini o'qitishda badiiy pedagogika vositalari, xususan, animatsion dublyaj texnologiyasining nazariy-metodik asoslari va amaliy samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda badiiy pedagogikaning mohiyati, tarbiyaviy jarayondagi o'rni va tarixiy rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quvchilarni axloqiy mavzular asosida yaratilgan va milliy musiqa bilan uyg'unlashtirilgan animatsion hikoyalarni ovozlantirishga jalb etish orqali ularning darsdagi kognitiv faolligini hamda axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasini oshirishdan iborat. Maqolada badiiy pedagogikaning estetik idrok, tanqidiy va mustaqil fikrlash hamda ma'naviy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirishdagi samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Badiiy pedagogika, tarbiya fani, animatsion dublyaj texnologiyasi, axloqiy tarbiya, milliy musiqa, multimedia vositalari, o'quvchilar faolligi, pedagogik kompetensiya.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida shaxsning ma'naviy va estetik rivojlanishiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar muntazam takomillashtirilmoqda. Globallashuv sharoitida tarbiya fanida badiiy pedagogikaning o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va ularning g'oyaviy-estetik ongini shakllantirishdagi roli ortib bormoqda. Bu mexanizmlar orqali salbiy xulq-atvor ko'rinishlarining oldini olish, shuningdek, o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va estetik mezonlarni rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. Badiiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonini san'at vositalari orqali tashkil etish bo'lib, u nafaqat bilim berish, balki bu jarayonni hissiy-estetik jihatdan boyitish va o'quvchining badiiy-idrok etish qobiliyatini o'stirishni maqsad qiladi. Tarbiya fanida

badiiy pedagogika o'quvchini emotsional jihatdan boyitadi, hayotiy hodisalarga estetik munosabtni shakllantiradi [13]. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha badiiy pedagogika obraz, hissiyot va pedagogik ta'sir komponentlarining uzviy birligida namoyon bo'lib, uning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonini san'at vositalari orqali integrativ tarzda loyihalash va amalga oshirishdan iborat [9]. Zamonaviy didaktik yondashuvlarda vizual ta'lim vositalari bilim, ko'nikma va amaliy harakatlarni obrazli ifodalash orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muhim metodik omil deb talqin etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy pedagogika va tarbiya masalasi chuqur ilmiy-an'anaviy asosga ega bo'lib, u pedagogika fanining mustaqil yo'nalishi sifatida shakllangan.

Ushbu yo'nalish san'at vositalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni maqsad qiladi. Badiiy pedagogika o'quvchini emotsional jihatdan boyitish, uning his-tuyg'ular dunyosini kengaytirish va estetik idrokini o'stirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. San'at asarlari, musiqa, tasviriy san'at, adabiyot va teatr vositalari orqali o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki atrofdagi voqelikka nisbatan estetik munosabatni shakllantiradi, go'zallikni anglaydi va uni qadrlashga o'rganadi. Bu jarayonda o'quvchining hissiy-irodaviy sohasi faollashib, u hayotiy hodisalarga nafaqat mantiqiy, balki emotsional va estetik nuqtai nazardan baho berish kompetensiyasini egallaydi. Natijada, o'quvchi shaxsi va ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan turli vaziyatlarga nisbatan estetik did va ma'naviy mezonlar asosida munosabat bildirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, badiiy pedagogika o'quvchining ijodiy salohiyatini o'stirish, uning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. San'at vositalari orqali tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchini passiv bilim oluvchi emas, balki faol ijodkor va mustaqil fikrlovchi subyektg'a aylantiradi. O'quvchi badiiy obrazlar, hikoyalar va syujetlar orqali turli hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi, ularga o'ziga xos baho beradi va ijodiy yondashuv asosida muammolarni hal etish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa uning kelgusidagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi. Shuningdek, o'quvchining ma'naviy qadriyatlar tizimini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni tarbiyalash vazifalarini ham bajaradi. San'at va milliy musiqa vositalari orqali o'quvchi o'z xalqining madaniy merosi, urf-odatlarini va an'analari bilan yaqindan tanishadi, ularni qadrlash va asrab-avaylashga o'rganadi. Bu jarayonda o'quvchida milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlar shakllanib, u jamiyatning munosib a'zosi bo'lib yetishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy pedagogika va uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni haqidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalish uchta asosiy qatlamdan iborat.

O'zbekiston pedagogikasi: H.Yo'ldoshev, I.I.Adizova [1], S.T.Shakirova [11], X.I.Ibragimov yoshlar tarbiyasining pedagogik asoslarini, M.Jo'rayev va Q.Yo'ldoshev ta'limning badiiy hayotini va insoniyatshunoslik g'oyasini [5], O.Gizatullina esa raqamli metodikani tarbiya fanida qo'llash masalalarini o'rgangan [4].

MDH davlatlari pedagogikasi: Y.A.Komenskiy ko'rgazmalilikni "didaktikaning oltin qoidasi" deb e'lon qilgan [6], I.G.Pestalotsi estetik tarbiyani shaxs kamolotining tarkibiy qismi deb ko'rgan [10], K.D.Ushinskiy esa "tarbiya xalq ruhiga

1-jadval. Darsga faollik va axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish qiyosiy natijalari

t/r	Baholash mezonlari	Guruhlar	Dastlab (%)	Yakuniy (%)	O'sish koeffitsiyenti
1	Darsga faollik	Tajriba	50%	67%	+17%
		Nazorat	49%	54%	+5%
2	Axloqiy tushunchalar	Tajriba	48%	64%	+16%
		Nazorat	47%	52%	+5%

Tadqiqot natijalari tarbiya fanida badiiy pedagogika imkoniyatlaridan, xususan, animatsion dublyaj texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning darsdagi kognitiv faolligi va axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Tajriba guruhida qayd etilgan 17 %lik faollik o'sishi va 16 %lik o'zlashtirish ko'rsatkichining ortishi an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan yuqori natija ekanligi statistik tahlil orqali tasdiqlandi. Olingan natijalarni ilmiy-nazariy jihatdan izohlash bir qancha pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida mumkin. Tajriba guruhidagi o'quvchilarning animatsion qahramonlarni ovozlashtirish jarayonida bevosita ishtirok etishi

mos bo'lishi kerak" tamoyilini ilgari surgan [12]. L.S.Vigotskiy "San'at psixologiyasi" asarida san'atni his-tuyg'ularni tartibga soluvchi ijtimoiy texnika deb ta'riflagan [13], B.T.Lixachev badiiy pedagogikaning estetik vazifalarini [7], O.S.Bulatova esa pedagogik artistizmni ilmiy jihatdan asoslab bergan [3].

Jahon pedagogikasi: R.Mayer "Multimedia orqali o'qitish nazariyasi" [8], J.Bruner narrativ va kashfiyotga asoslangan o'qitish yondashuvini ishlab chiqqan [2].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot doirasida 7-sinf tarbiya darsligidagi quyidagi mavzular asosida badiiy-animatsion materiallar ishlab chiqildi: "Halollik va rostgo'ylik", "Mehnat farovonlik manbai", "Do'stlik va sadoqat", "Ota-onaga hurmat", "Vatanparvarlik va milliy g'urur". Har bir mavzu bo'yicha darslikdagi asl hikoya syujeti animatsion ssenariyga aylantirildi. Milliy musiqa tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi:

musiqa mavzuning axloqiy ruhiga mos bo'lishi;
o'zbek milliy cholg'u asboblari ustuvorlik qilishi;
musiqa sur'ati animatsiyaning harakatlanish tempi bilan uyg'unlashishi;
muloqot sahnalarida musiqa ovoz ko'lami 20-25% dan oshmasligi.

Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba va nazorat guruhlar o'rtasida dastlabki ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli farq mavjud emas. Tajriba guruhida darsga faollik darajasi 50% ni, axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish sifati yaxshi va a'lo baholarni olgan o'quvchilar ulushi 48% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 49% va 47% edi. Pedagogik kuzatuv natijalari ham guruhlar o'rtasida o'quvchilarning darsdagi faolligi, diqqati va topshiriqlarni bajarish darajasi bo'yicha sezilarli tafovut yo'qligini tasdiqladi.

Shakllantiruvchi bosqichda 32 hafta tajriba guruhida tarbiya darslari badiiy-animatsion materiallar, milliy musiqalar asosidagi animatsion hikoyalar va o'quvchilarning qahramon ovozi mustaqil ovozlashtirish texnologiyasi asosida tashkil etildi. Nazorat guruhida esa darslar an'anaviy usulda olib borildi. Tajriba davomida o'quvchilarning darsga munosabati, faolligi, savollarga javobi va ijodiy topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlari muntazam ravishda qayd etib borildi.

Yakunlovchi bosqich natijalari tajriba guruhida o'quvchilarning darsga faolligi 50% dan 67% ga, ya'ni 17% ga oshganligini ko'rsatdi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 49% dan 54% ga, ya'ni atigi 5% ga o'sdi. Axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish sifati bo'yicha tajriba guruhida yaxshinva a'lo baholarni olgan o'quvchilar ulushi 48% dan 64% ga, ya'ni 16% ga ko'tarildi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 47% dan 52% ga, ya'ni 5% ga o'zgardi.

1-jadval. Darsga faollik va axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish qiyosiy natijalari

ularning bilimlarni faqat eshitish yoki ko'rish orqali emas, balki amaliy tajriba va emotsional kechinmalar orqali o'zlashtirishiga xizmat qilgan. L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga ko'ra, shaxs qobiliyatining rivojlanishi uning mustaqil bajarishi mumkin bo'lgan topshiriqlar bilan kattalar yordamida bajarishi mumkin bo'lgan topshiriqlar orasidagi zonada amalga oshadi [13]. Animatsion dublyaj texnologiyasi o'quvchilarga qahramon obrazi orqali o'zidan yuqoriroq axloqiy pozitsiyani sinab ko'rish imkonini beradi, bu esa ularning axloqiy ongi va refleksiv qobiliyatlarining rivojlanishiga turtki bo'ladi. J.Bruner tomonidan asoslangan narrativ tafakkur nazariyasiga muvofiq, inson atrofdagi

voqelikni mazmunli hikoyalar, obrazlar va hayotiy vaziyatlar orqali chuqurroq anglaydi [2]. Animatsion hikoyalar va ularni ovozlashtirish orqali o'quvchilar axloqiy tushunchalarni mavhum qoidalar sifatida emas, balki jonli obrazlar va emotsional vaziyatlar kontekstida o'zlashtiradi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning 76 %i qahramonlarga ovoz berish jarayonida o'z his-tuyg'ularini chuqurroq his qilganligini qayd etgan, bu esa badiiy pedagogikaning emotsional-intellektual komponentining tarbiyaviy jarayondagi muhim rolini tasdiqlaydi. Badiiy pedagogikaning o'ziga xos xususiyati obrazlilik, emosionallik va pedagogik maqsadga muvofiqlik komponentlarining birligi o'quvchilarning nafaqat kognitiv, balki affektiv va estetik rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Milliy musiqaqalardan foydalanish o'quvchilarning milliylik hissi, estetik didi va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat K.D.Ushinskiy tomonidan ilgari surilgan "tarbiya xalq ruhiga mos bo'lishi kerak" tamoyilining zamonaviy talqini bo'lib, badiiy pedagogika vositalarining milliy mentalitet va an'analar

bilan uyg'unlashuvi tarbiyaviy samaradorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [12]. Mazkur natijalar badiiy pedagogikaning integrativ xususiyatini uning kognitiv, affektiv va estetik tarkibiy qismlarning uzviy birligini yaqqol ko'rsatib, animatsion dublyaj texnologiyasi tarbiya darslarida o'quvchilarning shaxsiy va ma'naviy kamolotini qo'llab-quvvatlovchi samarali pedagogik vosita ekanligini isbotlaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Badiiy pedagogika tarbiya fanida o'quvchining nafaqat kognitiv sohasiga, balki affektiv-qiymatli sohasiga ham ta'sir ko'rsatuvchi, axloqiy tushunchalarni ichki kechinma darajasida singdiruvchi, estetik didni shakllantiruvchi va ijodiy salohiyatni rivojlantiruvchi samarali pedagogik strategiya hisoblanadi. Animatsion dublyaj texnologiyasi tarbiya darslarini loyihalashning innovatsion shakli bo'lib, o'quvchini passiv kuzatuvchi va tinglovchi pozitsiyasidan chiqarib, faol ishtirokchi, ijodkor va qahramonlarning ichki kechinmalarini empatik tarzda his qiluvchi subyektga aylantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Adizova I.I. Tarbiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 180 b.
2. Bruner J. The Culture of Education. New Edition with Commentary. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2020. - 240 p.
3. Bulatova O.S. Pedagogicheskiy artistizm: uchebnik dlya vuzov. 2-nashri. Moskva: Yurayt, 2024. - 332 b.
4. Gizatullina O.I. Innovatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Guliston: 2023. - 172 b.
5. Jo'rayev M., Yo'ldoshev Q. Ta'limning badiylashuvi va insoniylashuvi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Akademnashr, 2020. - 214 b.
6. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. Zamonaviy talqin va izohlar bilan. Moskva: Yurayt, 2022. - 320 b.
7. Lixachev B.T. Pedagogika. 2-nashri, qayta ishlangan. Moskva: Yurayt, 2020. - 556 b.
8. Mayer R.E. Multimedia Learning. 3rd Edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2020. - 450 p.
9. Medvedeva E.V. Art-pedagogika i art-terapiya v spetsialnom i inklyuzivnom obrazovanii. Moskva: Yurayt, 2021.
10. Pestalotsi I.G. Tanlangan pedagogik asarlar. Zamonaviy talqin va izohlar bilan. Moskva: Yurayt, 2022. - 296 b.
11. Shakirova S.T. Umumta'lim maktablarida tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari. Qayta nashr. Toshkent: O'qituvchi, 2022. - 240 b.
12. Ushinskiy K.D. Pedagogik asarlar to'plami. Tavsifiy va izohli nashr. Moskva: Prosveshcheniye, 2021. - 352 b.
13. Vigotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. Ilmiy izoh va so'zboshi bilan. Moskva: Akademiya, 2019. - 600 b.
14. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. 2-nashri. Toshkent: Akademnashr, 2020. - 268 b.